

ARABIZMLARNING O`ZBEK TILIDAGI IMLOSI

ARABIC SPELLING IN UZBEK LANGUAGE

*Ochilova Feruza**QarshiDU magistrant**feruzaochilova036@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada arabizmlarning o`zbek tilidagi imlosi xususida so`z boradi.

Kalit so`zlar: arabizmlar, diniy tushuncha atoqli otlar imlosi.

Bir qator tillar o`z taraqqiyoti davomida o`zga tillardan so`z o`zlashtiradilar. Albatta, o`zbek tili ham bundan mustasno bo`lmagan holda fors-tojik, arab, uyg`ur, hind, mog`ul va boshqa tillardan so`zlar o`zlashtirgan sanaladi. Tilimizda eng ko`p o`zlashmalari mavjud til bu arab tilidir. Arab tili deyarli uch yuz yil davomida o`zbek, tojik va boshqa bir qator xalqlar uchun umumadabiy til vazifasini o`taganligi buning asosiy sababidir. Tilimizda ijtimoiy-siyosiy, ilm-fan, adabiyot-san`at, sanoat, harbiy ish, kitob, nashriyot, ma`rifat, maktab, kasb-hunar va diniy tushunchalar bilan bog`liq bo`lgan ko`plab arabizmlar mavjuddir. Ularni og`zaki va yozma tarzda qo`llashda bir qator xato va kamchiliklarga yo`l qo`yiladi. Xususan, arab tilida mavjud bo`lgan tovushlar o`zbek tilida uchramaganligi sababli o`z fonetikamizga moslashtiramiz va so`zlarni noto`g`ri talaffuz qilamiz. Ma`lum muddat davomida arab grafikasi asosidagi yozuvga asoslangan o`zbek yozuvida ham bir muncha kamchiliklar mavjud edi. Undan keyingi lotin grafikasida ham bir qator bartaraf etilmagan kamchiliklar mavjud. Eski o`zbek yozuvidagi kamchiliklarning asosiy sababi arab tilida mavjud bo`lgan ammo o`zbek tilida uchramaydigan bir qancha tovushlar mavjud. Ular: ث ذ ص ض ط ظ ع ه

Bu tovushlarni qaysi o`rinda, qaysi so`zlarda qo`llash xususidagi noqulayliklar sabab arab grafikasi asosidagi eski o`zbek yozuvi muomaladan chiqarildi. O`zbek tilida mavjud bo`lmagan yuqorida qayd etilgan tovushlar o`ziga xos artikulyatsiyaga ega bo`lib, ularni talaffuz qilish biz uchun qiyinchilik tug`diradi. Aynan shu sabab biz bu tovushlarni o`z nutq apparatimiz imkoniyatlariga qulaylashtirgan holda talaffuz qilamiz va bir qancha imloviy xatoga yo`l qo`yamiz. Masalan ر ص ض ط ظ غ خ ق kabi undoshlardan so`ng kelgan fatha yoki alifni [a] tovushi sifatida talaffuz qilinishi mumkin emas. Alif yoki fatha belgisi qo`yilgani bilan zikr etilgan yuqoridagi tovushlardan keyin kelgan alif [o] tovushi tarzida talaffuz qilinishini talab etadi. Ayni shu holat o`zbek tilidagi imloviy xatoliklarni yuzaga kelishiga sabab bo`ladi. Misol uchun, arab tilida **romadon** tarzida aytiladigan so`z o`zbek tiliga o`zlashma bo`lib o`tgandan keyin *ramazon* shakliga kelib qolgan. (Rohman, rohim, rob, g`oyb, qola bunday so`zlarni ko`plab misol qilish mumkin). Aynan shu sakkizta tovush

ishtirok etgan soʻzlar talaffuzi va imlosida biz oʻzlashma soʻzlarni yozuvda ifodalashda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelamiz. Bundan tashqari arab grafikasida soʻz boshi va atoqli otlarni bosh harfda yozish xususida qoida mavjud boʻlmaganligi ham bizning imlo uchun yot holat sanaladi va oʻzbek tili qoidalariga mos emasligi uchun shakliy yozuv qoidasining buzilishiga olib keladi. Chet tillardan oʻzlashtirilgan har qanday tushuncha va nomlar shakliy yozuv qoidasi asosida yoziladi. Yaʼni, arab tilida qay tarzda yozilgan boʻlsa biz ham xuddi shunday holatda qoʻllashimiz lozim. Ammo koʻpincha bu qoidani buzadigan holatlar asosan diniy tushunchalar va atoqli otlar bilan bogʻliq boʻlib, oʻzbek tilida ular bosh harf bilan yoziladi. Ular quyidagi soʻzlardir:

allah, qurʼan, nabi, rosul, muhammad, insha allah, maashaa allah, subhan allah, (سبحانالله, الله, الله, قران, ماشاءالله, انشاءالله, محمد, رسول, نب,) va jannat hamda doʻzax(nar)ga oid tushunchalar boʻlib, arab grafikasida kichik harflar orqali ifodalanadi. Oʻzbek tilida esa ilohiyotga oid tushuncha va atoqli otlarni ifodalaganligi nuqtayi nazardan bosh harfda yoziladi. (Allah, Qurʼani Karim, Nabi, Rosul, Muhammad, insha Allah, maashaa Allah, subhan Allah va hokazolar) bunday soʻzlar aslida bir qancha boʻlib, biz bugungi kunda eng koʻp yoziladiganlarini va keng isteʼmoldagilarni misol tariqasida keltirdik.

Bu soʻzlarni yozishda ham baʼzi oʻrinlarda oʻzbek tilida ham ikki xillikni kuzatish mumkin. Bu esa yana yozuv sohasida savodsizlikka sabab boʻladi. Aynan shu xususda, shakliy yozuv qoidasiga rioya qilish lozim. Arabizmlarning ilohiy tushuncha va atoqli otlarni ifodalovchilarini bosh harfda va shakliy yozuv qoidasiga amal qilgan holda yozish, savodsizlikni oldini oladi. Yana bir narsani ham eslatib oʻtish joiz, aynan mana shu bosh harf va kichik harfda yozish masalasi adabiyotshunoslikda turkiy tilda yaratilgan bir qancha gʻazallarning qofiyasini shakllantirishda oʻziga xos soʻz oʻyinini, yaʼni tajnis sanʼatini yuzaga kelishida sabab boʻladi. Masalan:

*Qoshlaring yosin Atoiy koʻrgali husn ichra toq,
Subhidam mehroblarda surayi “Yosin” oʻqir.*

(Atoiy)

Birinchi misradagi “yo(y)”soʻzi sof turkiy soʻz, ikkinchi misradagi “Yosin” esa arabiy lafz boʻlib, ularni shakl va maʼno jihatidan bir-biridan farqlash maqsadida aynan bosh va kichik harflarda yozilgan.

Yuqorida keltirilgan maʼlumotlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, shakliy yozuv qoidasi ayrim oʻrinlarda ishlatilmasligi ham mumkin. Bunday hollarda arab tilida bosh harf mavjud boʻlmasa-da, oʻzbek tilida atoqli otlarni va diniy terminlarni ifodalovchi soʻzlarda bosh harf qoʻllaniladi. Ammo bu holat ham barcha soʻzlar imlosi uchun oʻrinli boʻlavermaydi. Qoidalarni chetlab oʻtish savodsizlikka sabab boʻlishini unutmagan holda ularga oʻz oʻrnida amal qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Ibrohimov, M. Yusupov "Arab tili grammatikasi" I jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 1997
2. Atoiy. "Devoni shayxzoda Atoiy" Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti 2008
3. Xurshid Davron kutubxonasi